



## BO'LAJAK TARBIYACHI-PEDAGOGLARDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA FASILITATSION YONDASHUVNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI.

**Ochilova Nigora Mallayevna**

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti p.f.n. dotsenti.

**Eshmatova Go'zaloy Ziyoyidin qizi**

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15259076>

**Annotatsiya.** Maktabgacha ta'lim tizimi yangi ilmiy izlanishlar olib borish va shu asosida yangi istiqbolli loyihalarni tizimga tadbiq etilishini nazarda tutuvchi ta'limning muhim bo'g'inlaridan biriga aylanmoqda. Pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda o'z bilimi, ko'nikma va resurslaridan foydalanadi. Pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini ochishga hissa qo'shadigan rivojlantiruvchi muhitni yarata olishi kerak.

**Kalit so'zlar:** fasilitatsiya, ta'lim, tarbiya, pedagog, xulq-atvor, yo'nalish, rivojlantirish.

Keyingi yillarda tizimda tobora samarali va interaktiv loyihalar ko'lami kengayib, ularning erta yoshdagi bolalar rivojlanishidagi ahamiyati o'sib bormoqda. Jahon miqyosida bolalarni erta yosh bosqichlarida ta'lim jarayoniga tayyorlash, ularni maktab ta'limiga muvaffaqiyatli moslashuvini (soft skills), texnik taraqqiyot, raqamli informatsiyalar tarmog'i kengayayotgan kelajak uchun kreativ texnikalarni o'zlashtirib borish imkoniyatlarini yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-olamni anglay olish, ularni o'rab turgan olam haqida keng tasavvurlarni hosil qila olish asosida o'zining iqtidorini mustaqil rivojlantira bilish ko'nikmalarini shakllantirish yana bir muhim vazifa bo'lib sanalmoqda. "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"da bolalarda bilish jarayonlarini shakllanishida reflektiv faoliyat – bolada o'z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni sifatida belgilab berilgan. Bolalarda mustaqil fikrlay olish asosida o'z hatti-harakatlarini baholay olish, tadqiqiy faoliyatlar jarayonida dunyoqarashini kengaytirib borish, ularda komil inson sifatlarini shakllantirib boradi. Erta yosh bosqichlaridan boshlab alohida yondashuvlar asosida ta'limni sifatli tashkil qilish orqali ta'lim tizimining keyingi bo'g'inlariga bolani tayyorlab borish hamda unda bilishga, o'rganishga nisbatan qiziquvchanlikni rivojlantirib borish mumkin. Bolalarni rivojlanayotgan zamon talablari asosida voyaga yetkazish,





ularni globallashayotgan yangi raqamli dunyo atmosferasiga moslashtirib borishni taqozo etadi.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev rahnamoligida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimida ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol sifatida Toshkent shahrida 2022 yil 15 noyabrda "Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish" masalalari bo'yicha jahon konferensiyasida qatnashib, quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan edi: «Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q», – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Darhaqiqat, maktabgacha ta'lim tizimida keyingi besh yillik davrda juda ko'p yangi islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 dekabrda O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 23-sentyabrda O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda 802-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022 yil, 4 fevralda 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashr etishga tavsiya etilgan takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi va bir qator maktabgacha ta'lim tizimi bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, ta'lim va tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashi shartligi belgilab qo'yilgan.

Pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda o'z bilimi, ko'nikma va resurslaridan foydalanadi. Pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini ochishga hissa qo'shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Buning uchun pedagog bolaning rivojlanish xususiyatlarini biladi, uning his-tuyg'ularini tushunadi, har bir bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlaydi va hisobga oladi.

Pedagog guruhda shunday inklyuziv muhit yaratadiki, unda har bir bola o'zini ardoqli, qobiliyatli va ta'lim jarayoniga jalb qilingandek his qilishi kerak.





Pedagog bolaning mustaqil harakat qilish, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Pedagog, shuningdek, bolalarda zarurat bo'lganida, har bir bola tarbiyachidan yordam va dalda olishi mumkinligiga ishonch hissining paydo bo'lishiga yordam beradi. Pedagog doimiy ravishda kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun o'z kasbiy faoliyatini hujjatlashtiradi, tahlil qiladi va baholaydi. Pedagog bolaning, ota-onalarning va mahalliy jamoatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qiladi va o'z ishini teng sheriklik asosida quradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni/16.12.2019.
2. "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 yil
- 3.Qodirova F. va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. Darslik. -T.: "Tafakkur", 2019,685 b.
- 3.O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 yil
- 4.N.X.Avliyoqulov, N.N.Musayeva, Pedagogik texnologiya, Toshkent – 2012, 27 bet
- 5.N.M.O'rinova, M.O.Uralova, Ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv, Farg'ona – 2011.

